

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari tarbiya o‘quv fani o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli hamda baholash mezoniga qo‘yilgan talablarini aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning tarbiya fani, kasb standartlari va pedagogik mahorat bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Tarbiya fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda

yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*), moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3) foydalaniladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi (1–3-savollar)		
Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi	–milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmuni hamda o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; –go'zal fazilatlar, muomala va muloqot madaniyati qoidalarini topish; –ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni hayotiy vaziyatlarda bir-biridan farqini to'g'ri ajrata olish; –vaziyat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini rostgo'ylik va adolat mezonlari asosida baholash hamda to'g'ri yechimni aniqlash; – berilgan vaziyatda inson qadr-qimmati va insonparvarlikka muvofiq xatti-harakatni aniqlash; –atamalarni izohini topish, qoida va ma'lumotlarni vaziyatga mos qo'llash, yechimini topish.	3
2. Fuqarolik hissi (4–5-savollar)		
Fuqarolik hissi	–vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va daxldorlik tushunchalarining mazmunini aniqlash, berilgan hayotiy vaziyatlarda ushbu fazilatlarni ifodalovchi xatti-harakatlarni farqlash; –fuqarolik huquq va burchlarini farqlash; –inson va jamiyat uyg'unligini aniqlay olish; –faol fuqarolik darajalarini aniqlash va ularni hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olish; – qonunning jamiyat hayotini tartibga solish, huquq va manfaatlarni himoya qilish hamda ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirishdagi vazifalarini aniqlash; – berilgan vaziyatda inson xatti-harakatining sababi, ehtimoliy oqibati va maqbul yechimini aniqlash; –qoida va ma'lumotlarni vaziyatga mos qo'llash, yechimini topish; – berilgan fikr va g'oyalarning mazmunini aniqlash, ularni asoslovchi dalillar, mantiqiy izchillik hamda chiqarilgan xulosalarni tahlil qilish va baholash.	2

3. Yashashdan maqsad munosib hayot (6–8-savollar)		
Oilaviy qadriyatlar va oliy maqsad	–muvaffaqiyatga erishish omillarini aniqlash hamda vaqtni samarali boshqarish tamoyillarini hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash; – oilaviy qadriyatlarning shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligiga ta‘sirini hayotiy vaziyatlar asosida tahlil qilish; –hayotiy vaziyatlarda ezgu nom qoldirishga xizmat qiluvchi xatti-harakatlarni aniqlash; –qunt, qat‘iyat va dadillikning muvaffaqiyatga ta‘sirini topish; –berilgan matn yoki vaziyatda insonning ichki xotirjamligi, hayotdan qoniqishi va ma‘naviy barqarorligiga ijobiy yoki salbiy ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash; – berilgan fikr va g‘oyalarning mazmunini aniqlash, ma‘lumot va qoidalarini muayyan vaziyatga mos tatbiq etish hamda maqbul yechimni topish; –turli xil vaziyatlarni taqqoslash orqali sabab–oqibat bog‘lanishlarini tahlil qilish hamda asosli xulosa aniqlash.	3
4. O‘z-o‘zini anglash, o‘ saman va rivojlanaman (9–12-savollar)		
O‘zgarish va tanqidiy fikrlash	–inson hissiyotlarini boshqarishga mos xatti-harakatlarni aniqlash hamda ularning ijobiy va salbiy natijalarini farqlash; –jamiyat yoki shaxsiy rivojlanishdagi o‘zgarishlarni aniqlash hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari asosida ularni tahlil qilish; – sog‘lom turmush tarzining asosiy tamoyillarini aniqlash hamda kundalik hayotda ularga mos odat va xatti-harakatlarni tanlash; –to‘g‘ri ovqatlanish qoidalarini vaziyatlarga mos qo‘llash; –inson salomatligiga xavf soluvchi tahdidlarni aniqlash va tahlil qilish; –berilgan matn yoki hayotiy vaziyatda ifodalangan hissiy holatni tegishli belgilariga ko‘ra aniqlash; – matn, ma‘lumot va qoidalar asosida asosiy fikr hamda g‘oyalarni aniqlash, ularni vaziyatga tatbiq etish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tahlil qilish va maqbul yechimni tanlash.	4
5. Inson va jamiyat (13–17-savollar)		

Jamiyat, mahalla, oila, din, madaniyat	– jamiyat, mahalla, oila, din va madaniyat tushunchalarining mazmunini aniqlash hamda ularni o‘ziga xos belgilariga ko‘ra farqlash; – ularning har birini vazifalarini to‘g‘ri ajrata olish; – turli xil vaziyatlarning yechimini topish va xulosasini aniqlash; – matn, ma’lumot va qoidalar asosida asosiy fikr hamda g‘oyalarni aniqlash, ularni vaziyatga tatbiq etish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tahlil qilish va maqbul yechimni tanlash.	5
6. Ijtimoiy tarmoq: imkoniyat va tahdidlar (18–20-savollar)		
Ijtimoiy tarmoq: imkoniyat va tahdidlar, ogohlik	– ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash va farqlash; – zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish usullarini hamda global tarmoqlardagi xavfsizlik va odob-axloq qoidalariga mos xatti-harakatlarni tanlash; – soxta va ishonchli axborotni farqlash hamda raqamli odob qoidalariga mos muloqot usulini tanlash; – raqamli muhitdagi xavf va tahdidlardan himoyalanişga doir ogohlik talablarini aniqlash; – axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalariga mos harakatlarni topish; – berilgan ma’lumot va qoidalarni vaziyatga tatbiq etish, fikrni asoslovchi dalillarni aniqlash hamda mantiqiy xulosani tanlash.	3
7. Ilm-ma’rifat va innovatsiya (21–25-savollar)		
Ilm-ma’rifat, innovatsiya, liderlik	– ilm-ma’rifat, innovatsiya va liderlik yondashuvlariga oid tushuncha hamda xususiyatlarni aniqlash; – maqsadning “SMART” texnologiyasi mezonlariga muvofiqligini aniqlash hamda unga erishish bosqichlarining to‘g‘ri ketma-ketligini tanlash; – vaziyatlarning o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslash, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash hamda asoslangan xulosani tanlash; – ma’lumotlar va qoidalarni vaziyatlarga mos tatbiq etish, tahlil qilish, muammolarning yechimini topish; – berilgan ma’lumot va qoidalarni vaziyatga tatbiq etish, fikrni asoslovchi dalillarni aniqlash hamda mantiqiy xulosani tanlash.	5

8.Tadbirkorlik asoslari (26–28-savollar)		
Tadbirkorlik, frilanserlik, shaxsiy rivojlanish	–tadbirkorlik va frilanserlik tushunchalarini farqlash; – moliyaviy mablag‘ va vaqtni maqsad, muddat hamda ustuvorliklarga muvofiq rejalashtirish va maqbul taqsimotni aniqlash; –tadbirkorlik va frilanserlikka oid hayotiy vaziyatlarda imkoniyat, xavf va vazifalarni baholash hamda mos yondashuvni tanlash; –g‘oya va boylikdan foydalanish mezonlarini to‘g‘ri aniqlash; – shaxsiy rivojlanishga oid ko‘nikmalar, ularning xususiyatlari va namoyon bo‘lish holatlarini aniqlash; –ma‘lumot va qoidalarni vaziyatlarga mos tatbiq etish va yechimini topish; – berilgan fikr va g‘oyaning mazmunini aniqlash, uni asoslovchi dalillarni ajratish, fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy izchillikni tahlil qilish.	3
9. Ekologik tarbiya (29–31- savollar)		
Tabiat va inson	–tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari izohini topish; –tabiat va inson o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va tahlil qilish; –ekologik muammolarni aniqlash va ularning to‘g‘ri yechimini topish; –tabiiy resurslarning asosiy turlarini farqlash hamda ulardan oqilona yoki isrofgarchilik bilan foydalanishning ekologik va ijtimoiy oqibatlarini aniqlash; – berilgan vaziyatga mos ma‘lumot va qoidalarni aniqlash, ularni qo‘llash natijasini tahlil qilish hamda maqbul yechimni tanlash.	3
10. Tinch va xotirjam yashash baxti (32–33-savollar)		

Hamkorlik, bag'rikenglik, millatlararo hamjihatlik	–hamkorlik, bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlik tushunchalarini farqlash; –millatlararo hamjihatlikni ta'minlashga oid huquqiy me'yorlarni aniqlash; – millatlararo muloqotga oid vaziyatlarda odob-axloq qoidalariga mos xatti-harakatlarni aniqlash, turli yondashuvlarni taqqoslash hamda to'g'ri xulosani tanlash; –berilgan hayotiy vaziyatlarga to'g'ri yechimni tanlash; – berilgan fikr va g'oyaning mazmunini aniqlash, uni asoslovchi dalillarni ajratish, fikrlar o'rtasidagi mantiqiy izchillikni tahlil qilish.	2
11. Jamoaviy munosabatlar (34–35-savollar)		
Ziddiyatlar va yechimlar, o'zaro yordam, jamoa bo'lib ishlash	– jamoaviy munosabatlar va ijtimoiy ko'nikmalarning ahamiyatini aniqlash, hayotiy vaziyatlarda ularga mos xatti-harakatni hamda ziddiyatlarni bartaraf etishning maqbul yechimini tanlash; –jamoada samarali ishlashga xos ko'nikma va xatti-harakatlarni aniqlash hamda berilgan vaziyatdagi ahamiyatini baholash; – o'zaro hurmat, hamkorlik va mas'uliyatga asoslangan xatti-harakatlarni hamda ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiladigan yechimni tanlash; –turli vaziyatlarga mos yechim va xulosalarni aniqlash, ularni taqqoslash hamda sabab-oqibat bog'lanishlari asosida tahlil qilish.	2

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

2-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish	5

	2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)	10 ta
2.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, pedagogik yondashuvlar va ta’lim paradigmalarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko’rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlari (yangi bilim berish darsi, mustahkamlash darsi, takrorlash va umumlashtirish darsi, nazorat (tekshirish) darsi, aralash dars; ma’ruza darsi, suhbat darsi, amaliy dars, laboratoriya darsi, mustaqil ish darsi; an’anaviy dars, noan’anaviy dars va boshqalar)ni bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish va boshqarish, muammoli vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to‘g‘ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to‘g‘ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo‘llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o‘shish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, persiptiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, baholash madaniyati, texnologik madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, – ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial	7

	ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – ta'limda baholashning asosiy tushunchalari (baholash maqsadi, tamoyillari, yondashuvlari, baholash turlari (formativ, diagnostik, summativ baholash), metod va texnologiyalari, vositalari)ni bilish, berilgan vaziyatga mosini tanlash va baholash bo'yicha qabul qilingan qarorlarning berilgan vaziyatda mosligiga baho berish; – raqamli savodxonlik, sun'iy intellekt, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar (emaktab.uz va boshqalar) va resurslaridan (Microsoft Office dasturlari, internet tarmog'idan) foydalanishni bilishi.	
2.2.Fanni o'qitish metodikasi	– fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi, o'qitish usullari va metodlarini bilish va farqlash, berilgan vaziyatga mosini tanlash, hamda o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	3
Jami		15 ta

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	8 ta
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35 ta
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7 ta

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” gi qonuni. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun. Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi 1059-son qarori. Lex.uz.
5. Mahmudov O. Farzandnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.
6. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Sharq, 2011.
7. Quronov M. Tarbiya. (5-sinf o‘quvchilari uchun darslik) / Quronov M, Maxmudova N, Xudaybergenova N, Sadikova Y, Borovskix D, Karimova G, Axmedova D, Raxmatullayeva H. – Toshkent: Novda Edutainment, 2025.
8. Quronov M. Tarbiya. (6-sinf o‘quvchilari uchun darslik) / Quronov M, Risyukova Yu, Tigay O, Usmonova O, Xafizova S. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.
9. Kenjayev D. Tarbiya (7-sinf o‘quvchilari uchun darslik) / Kenjayev D. Ismatova N, Ro‘ziyeva D, Xolmuxamedova N, Sattorov Sh, Zamonov Z, Islomov Z, Mahmudov O, Rahimjonov D, Akkulova S, Shermuxamedova S, Madaliyeva S, Zokirova S, Mo‘minova L. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
10. Zamonov Z. Tarbiya (8-sinf o‘quvchilari uchun darslik) / Zamonov Z, Maxmudov O, Islomov Z, Ro‘ziyeva D, Rahimjonov D, Sattorov Sh, Ismatova N, Akkulova S, Shermuxamedova S, Xolmuxamedova N, Madaliyeva S, Mo‘minova L, Zokirov S.– Toshkent: Zamin nashr, 2020.
11. Sattorov Sh. Tarbiya (9-sinf o‘quvchilari uchun darslik) / Sattorov Sh, Ro‘ziyeva D, Islomov Z, Ismatova N, Akkulova S, Shermuxamedova S, Zamonov Z, Maxmudov O, Rahimjonov D, Xolmuxamedova N, Madaliyeva S, Mo‘minova L, Zokirova S. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
12. Ismatova N. Tarbiya (10-sinf o‘quvchilari uchun darslik) / Ismatova N, Zamonov Z, Islomov Z, Rahimjonov D, Maxmudov O, Ro‘ziyeva D, Shermuxamedova S, Akkulova S, Xolmuxamedova N, Jabborova Z. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
13. Kenjayev D. Tarbiya (11-sinf o‘quvchilari uchun darslik) / Kenjayev D, Ismatova N, Islomov Z, Rahimjonov D, Ruziyeva D, Zamonov Z, Mahmudov O, Shermuxamedova S, Akkulova S, Xolmuxamedova N, Jabborova Z. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.

VII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: Bayoz, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O'., Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2019. – 276 b.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta'limda baholash va monitoring asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standarti.
6. Xodjayev B., Artikova M. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2020.
7. Muxsiyeva A.Sh. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi, darslik –T.: TDPU nashriyoti, 2023y.– 299b.
8. Voxidova N.X. va b. Milliy tarbiya asoslari. –T.: NIF MSH, 2024. –260 b.

Izoh: *tarbiya fani bo'yicha test topshiriqlari normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda shakllantiriladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilganda qonunning asl manbayiga murojaat qilinadi. (O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/>. sayti)*

***Eslatma:** *test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*